ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

№7(3)

2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari ..... 8
Davronov Rustam Ilxomovich

Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана ..... 15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов

Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar ..... 20
Qudratov O'ktam G'ofurovich

The Role of Motivation in Learning English ..... 25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari ..... 30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna

Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi ..... 37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna

Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari ..... 43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna

Talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari ..... 48
Kushbakova Barno Batirkulovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish ..... 54
Arslanova Madinaxon Mansurovna

O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati ..... 59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna

Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi ..... 63
Narzullayeva Firuza Olimovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish ..... 67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna

Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari ..... 71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li

Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari ..... 76
Xolova Yulduz Erkinovna

Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi ..... 83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li

Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarning o'qish samaradorligini oshirish ..... 87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar ..... 90
Djurakulova Munira Suyunovna

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ..... 97
Narzullayeva Firuza Olimovna

Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания ..... 102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна

Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi ..... 108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi

Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari ........ 111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna

Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida) ........ 115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari ........ 121
Kadirova Dildora Najadbekovna

The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges ........ 125
Moxinur Yusupova

Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish ........ 131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna

Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati ........ 136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi

Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi ........ 140
A. S. Umarov

Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari ........ 143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi

O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot) ........ 150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrigul Qurbanazarovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi ........ 159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi ........ 163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna

Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari ........ 169
Yuldashova Iroda Dilshodovna

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi ........ 174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili ........ 178
Abdullayev Doston Sheraliyevich

Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari ........ 183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li

Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов ........ 189
А. М. Магрупов

Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов ........ 194
Эгамбердиева Юлдуз

Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari ........ 198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari ........ 204
**Sherdanova Farangiz Raxmat qizi**

Zamonaviy televideniyeda suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot ........ 208
**Maxanbetova Dilnoza**

10-sinf kimyo darslarida “Spirtlar” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi........ 211
**Nazarova Yulduz Atamuratovna**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish ....... 215
**Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz**

Milliy taraqqiyot g‘oyalarida jadid ayollarining o‘rni........ 220
**Ergashova Mehriniso Husniddin qizi**

Mahalla – oila – ta’lim muassasasi hamkorligi........ 223
**Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek**

Oliy ta’lim muassasalarida “Mikrobiologiya” modulini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari ........ 227
**Reymova Erkinay Atabayevna**

Raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida professor-o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari........ 232
**Abdusamiyev Dilmurod Abdug‘ani o‘g‘li**

Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation ........ 238
**Aziza Sobirova**

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari........ 243
**Otayeva Salamat Sabirovna**

System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms ........ 250
**Odilova Fotima**

Oliy ta’lim tashkilotlarida qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim metodlarining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari........ 259
**Berdiyeva Nilufar Axatovna**

Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari........ 267
**Eshonqulova Madina Nosir qizi**

Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ........ 272
**Камолова Махлиё Акбар кизи**

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun’iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi........ 277
**Savriddinova Mexrinoz Ulug‘bekovna, Ro‘zimatov Jamshid Alisher o‘g‘li**

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tug‘ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog‘liqligi ..... 282
**Kalandarova Madina Baxadirovna**

Bo‘lajak o‘qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari ........ 285
**Kamolova Mashhura Otabek qizi**

Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI........ 289
**Odilova Fotima**

Adabiy ta’limda badiiy matnlar orqali o‘qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi........ 294
**Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi**

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari........ 298
**Boltayeva Go‘zal Komilovna**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi ........ 302
**Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi**

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari ....... 307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna

Oilaviy holat, ma’lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta’sir etuvchi psixologik xususiyatlari ........ 313
Pulatova Dilfuza Baxramovna

“Kommunikativ kompetensiya”ning tarkibiy komponentlari........ 318
Saidova Sumbuloy Otabayevna

Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ........ 321
Xamidova Zaynura Ramazonovna

Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari ........ 324
Yunusova Dildora Hamrakulovna

Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik........ 328
Kasimova Xulkar Atabayevna

Talaba-qizlarda sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ............ 332
Esanova Gulchehra Boybo‘ri qizi

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY MULOQOTINI RIVOJLANTIRISHDA MATN BILAN ISHLASHNING ASSOTSIATIV TAFAKKURGA ASOSLANGAN METODIKASI

Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda assotsiativ tafakkurning o'rni hamda matn bilan ishlashning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda matn tahlili, interfaol metodlar, vizual vositalar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning lug'at boyligi, mantiqiy fikrlashi hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Assotsiativ tafakkurga asoslangan metodik yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** assotsiativ tafakkur, nutqiy muloqot, boshlang'ich ta'lim, matn bilan ishlash, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, vizual vositalar, o'yin texnologiyalari, nutq rivoji.

**Abstract:** This article examines the role of associative thinking and the methodological potential of text-based instruction in developing the speech communication skills of primary school students. The study analyzes the effectiveness of text analysis, interactive teaching methods, visual tools, and educational games in improving learners' vocabulary, logical thinking, and communicative competence. The significance of an associative thinking-based methodological approach to increasing the effectiveness of the educational process is substantiated, and practical recommendations are proposed.

**Key words:** associative thinking, speech communication, primary education, text-based learning, communicative competence, interactive methods, visual tools, educational games, speech development.

**Аннотация:** В статье рассматриваются роль ассоциативного мышления и методические возможности работы с текстом в развитии речевой коммуникации учащихся начальных классов. Проанализированы возможности использования анализа текста, интерактивных методов обучения, визуальных средств и игровых технологий для развития словарного запаса, логического мышления и коммуникативной компетентности школьников. Обоснована эффективность методического подхода, основанного на развитии ассоциативного мышления, и предложены практические рекомендации по его внедрению в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** ассоциативное мышление, речевая коммуникация, начальное образование, работа с текстом, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, визуальные средства, игровые технологии, развитие речи.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot oqimi tobora kuchayib borayotgan sharoitda o'quvchilarning fikrini erkin, izchil va mantiqiy bayon qila olishi, muloqot jarayonida o'z fikrini asoslay bilishi hamda boshqalarning fikrini tahlil qilishi muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida nutqiy muloqotni rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Nutqiy muloqotning samarali rivojlanishi o'quvchilarning tafakkur faoliyati bilan bevosita bog'liq. Xususan, assotsiativ tafakkur o'quvchilarda tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy va semantik bog'lanishlarni hosil qilish, yangi bilimlarni avvalgi tajriba bilan uyg'unlashtirish hamda fikrni og'zaki va yozma shaklda izchil ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan assotsiativ tafakkurni rivojlantirish nutqiy muloqotni takomillashtirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida matn bilan ishlash o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Matnni tahlil qilish, tayanch tushunchalarni ajratish, mazmunini qayta hikoya qilish, matn asosida dialog va monolog tuzish o'quvchilarda assotsiativ bog'lanishlarni shakllantiradi, lug'at boyligini kengaytiradi hamda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bunday faoliyat o'quvchini bilimni passiv o'zlashtiruvchi emas, balki faol muloqot ishtirokchisiga aylantiradi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqni rivojlantirish bo'yicha ko'plab metodik tavsiyalar mavjud bo'lsa-da, assotsiativ tafakkur asosida matn bilan ishlashning yaxlit metodik tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, matn, vizual vositalar, interfaol metodlar va o'yin texnologiyalarini o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llash orqali nutqiy muloqotni rivojlantirish masalasi qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarini assotsiativ tafakkur asosida tahlil qilish hamda uning samaradorligini oshiruvchi metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari: boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy muloqot va assotsiativ tafakkurning o'zaro bog'liqligini ilmiy tahlil qilish; matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarini aniqlash; assotsiativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va vositalarni tizimlashtirish; matn asosida nutqiy muloqotni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur muammo bo'yicha respublikamiz va xorij olimlari tomonidan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan [3;6].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqiy muloqotning rivojlanishi o'quvchilarning tafakkur faoliyati, til birliklarini o'zlashtirish darajasi hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metod va texnologiyalar bilan uzviy bog'liq [4;6].

Pedagogik tadqiqotlarda nutqni rivojlantirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etiladi. Xususan, ona tili darslarida matn bilan ishlash, suhbat, muammoli vaziyatlar yaratish, ijodiy topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan [5;6].

Assotsiativ tafakkur muammosi psixologiya va pedagogika fanlari kesishgan nuqtada o'rganilgan bo'lib, u insonning yangi bilimlarni avvalgi tajribasi bilan bog'lash, tushunchalar o'rtasidagi semantik aloqalarni aniqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish jarayonlarini tavsiflaydi [7;9].

Mazkur yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi. Chunki assotsiativ bog'lanishlar asosida o'quvchi yangi tushunchalarni tezroq o'zlashtiradi, ularni muloqot jarayonida faol qo'llaydi hamda fikrini mantiqiy izchillikda ifodalay oladi [7;8].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, matn bilan ishlash assotsiativ tafakkurni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir [5;6;10].

Matn mazmunini tahlil qilish, tayanch so'zlarni aniqlash, mazmuniy xaritalar tuzish, voqealar o'rtasidagi bog'lanishlarni topish, matn asosida dialog va monolog yaratish kabi topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi [8;10].

Natijada o'quvchilarning lug'at boyligi ortadi, nutq ravonligi yaxshilanadi hamda kommunikativ kompetensiyasi shakllanadi [10;11].

So'nggi yillarda interfaol metodlar, vizual vositalar va o'yin texnologiyalarini assotsiativ tafakkur bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda nutqiy muloqotga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5;10;12].

Ayniqsa, klaster, aqliy hujum, konseptual xarita, "Aqliy xarita" (Mind Map), rolli o'yinlar va muammoli topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining assotsiativ fikrlashini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida tavsiflanadi [5;6;10].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda nutqiy muloqotni rivojlantirish va assotsiativ tafakkurni shakllantirish masalalari ko'proq alohida yo'nalishlarda o'rganilgan [4;11].

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn bilan ishlashni assotsiativ tafakkur asosida tashkil etishning yaxlit metodik modeli, uning didaktik shart-sharoitlari hamda samaradorlik mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, assotsiativ tafakkur asosida nutqiy muloqotni rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi.

1-jadval: **Assotsiativ tafakkur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishning konseptual modeli**




## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasini takomillashtirish masalasi o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini nutqiy muloqotni rivojlantirish, assotsiativ tafakkurni shakllantirish hamda boshlang'ich ta'lim metodikasiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, suhbat, savolnoma, pedagogik tajriba-sinov hamda natijalarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar o'quvchilarning nutqiy muloqot darajasini aniqlash, assotsiativ tafakkurning rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash va ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot metodikasining asosiy mazmunini matn bilan ishlash jarayonida assotsiativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish tashkil etdi. Bunda matn mazmunini tahlil qilish, tayanch tushunchalarni aniqlash, semantik bog'lanishlarni yaratish, "Aqliy xarita" (Mind Map), klaster, konseptual jadval, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar hamda ijodiy topshiriqlardan foydalanildi.

Ushbu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, lug'at boyligi, mantiqiy mushohada yuritishi va erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Metodik tizim uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda o'quvchilarning nutqiy muloqot va assotsiativ tafakkur darajasi diagnostik mezonlar asosida aniqlandi. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqilgan metodik topshiriqlar ona tili darslari jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etildi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, metodikaning samaradorligi baholandi.

Tadqiqotda o'quvchilarning nutqiy muloqoti quyidagi mezonlar asosida baholandi: fikrning mantiqiyligi, nutqning ravonligi, lug'at boyligi, matn mazmunini tushunish va qayta ifodalash darajasi, assotsiativ bog'lanishlarni hosil qilish hamda muloqot jarayonida erkin ishtirok etish ko'rsatkichlari. Ushbu mezonlar metodikaning natijadorligini kompleks baholash imkonini beradi. Natijada ishlab chiqilgan metodik yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishi hamda assotsiativ tafakkurni izchil shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur metodika boshlang'ich ta'lim amaliyotida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan assotsiativ tafakkurga asoslangan metodik tizim boshlang'ich sinf ona tili darslarida tajriba-sinov tariqasida qo'llanildi. Metodikaning asosiy maqsadi matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy muloqotini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini faollashtirishdan iborat bo'ldi.

Tajriba davomida o'quvchilarga badiiy, ilmiy-ommabop va tarbiyaviy mazmundagi matnlar asosida assotsiativ topshiriqlar tizimi taklif etildi. Jumladan, tayanch so'zlarni aniqlash, semantik bog'lanishlarni tuzish, klaster yaratish, matn mazmunini "Aqliy xarita" orqali ifodalash, dialog va monolog tuzish, muammoli savollarga javob berish hamda ijodiy hikoya yaratish kabi mashqlar muntazam tashkil etildi. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, assotsiativ tafakkurga asoslangan metodlardan foydalangan o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglash, asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajratish, fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish hamda o'zaro muloqot jarayonida faol ishtirok etishda yuqori natijalarni namoyon etdilar.

Ayniqsa, vizual vositalar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Metodik tizimni qo'llash natijasida o'quvchilarning lug'at boyligi kengaydi, og'zaki va

yozma nutqida mantiqiy izchillik kuchaydi, matnni qayta hikoya qilish, savollarga asosli javob berish hamda erkin fikr almashish ko‘nikmalari rivojlandi. Shuningdek, assotsiativ bog‘lanishlar asosida ishlash o‘quvchilarning yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirishiga va ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tajriba natijalari shuni tasdiqladiki, matn bilan ishlashni assotsiativ tafakkur asosida tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Metodikaning amaliyotga joriy etilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish hamda ularning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2-jadval: **Ta’lim jarayoni**




Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda assotsiativ tafakkurga asoslangan metodik yondashuvning samaradorligini tasdiqladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, matn bilan ishlash jarayoniga assotsiativ topshiriqlarni tizimli ravishda kiritish o‘quvchilarning nafaqat nutqiy faolligini, balki ularning mantiqiy va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Bu esa ta’lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning muhim pedagogik omili ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodik yondashuvning muhim jihati shundaki, u o‘quvchilarni tayyor bilimni qabul qiluvchi subyektdan mustaqil fikrlovchi va faol muloqot ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qildi. Matn mazmunini tahlil qilish, tayanch tushunchalar asosida semantik bog‘lanishlarni aniqlash, “Aqliy xarita”, klaster va ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Shuningdek, tadqiqot natijalari matn bilan ishlashni vizual vositalar va interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish darslarning samaradorligini oshirishini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirib, ularni hamkorlikda ishlash, fikr almashish va muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topishga undadi. Natijada nutqning ravonligi, lug‘at boyligi va muloqot madaniyati sezilarli darajada rivojlandi. Mazkur tadqiqot natijalari assotsiativ tafakkur asosida ishlab chiqilgan metodik tizimni boshlang‘ich ta’lim amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ona tili darslarida matn bilan ishlashning bosqichma-bosqich tashkil etilishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nutqiy muloqotni rivojlantirish samaradorligini yanada oshiradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari assotsiativ tafakkurga asoslangan metodik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali modeli ekanligini tasdiqlaydi hamda ushbu yo‘nalishda keyingi ilmiy izlanishlarni olib borish uchun muhim nazariy va metodik asos yaratadi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda assotsiativ tafakkurga asoslangan metodik yondashuvning ilmiy va amaliy jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi. Matn bilan ishlash jarayonida assotsiativ topshiriqlar, vizual vositalar, interfaol metodlar hamda o‘yin texnologiyalaridan kompleks foydalanish o‘quvchilarning nutqiy faolligi, lug‘at boyligi, mantiqiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik tizim o‘quvchilarning matn mazmunini chuqur anglash, asosiy va ikkinchi darajali g‘oyalarni ajrata olish, o‘z fikrini izchil va asosli bayon etish hamda muloqot jarayonida erkin ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bu esa assotsiativ tafakkur boshlang‘ich ta’limda nutqiy muloqotni rivojlantirishning muhim didaktik omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ona tili darslarida matn bilan ishlash jarayoniga assotsiativ tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlarni tizimli ravishda kiritish;
- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda vizual vositalar hamda interfaol metodlardan keng foydalanish;
- nutqiy muloqotni baholash mezonlarini assotsiativ fikrlash ko'rsatkichlari bilan integratsiyalash;
- boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun assotsiativ tafakkur asosida nutqiy muloqotni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.

Shunday qilib, assotsiativ tafakkurga asoslangan metodik yondashuvni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish o'quvchilarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy maqsadlariga erishishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun metodik asos vazifasini bajarishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 104 b.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 192 b.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.
4. Vygotsky L.S. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 182 p.
6. Bruner J.S. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
8. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics. 1980. Vol. 1, No. 1. P. 1–47.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(3)**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.